

**BOLALAR, ERKAKLAR KIYIMLARI UCHUN TURLI XIL CHO'NTAK
NAMUNALARNI TAYYORLASH**

Saqlapbergenova Amangul Maratovna

*Qoraqalpo g'iston Respublikasi Qorauzak tumani kasb-hunar maktabi tikuvcchilik
yo 'nalishi bo 'yicha ishlab chiqarish talim ustasi*

Primbetova Gulbaxar Yesbosinovna

*Qoraqalpo g'iston Respublikasi Qorauzak tumani kasb-hunar maktabi tikuvcchilik
yo 'nalishi bo 'yicha ishlab chiqarish talim ustasi*

Palwaniyazova Roza

*Qoraqalpo g'iston Respublikasi Qorauzak tumani kasb-hunar maktabi tikuvcchilik
yo 'nalishi bo 'yicha maxsus fan o 'qituvchisi*

Annotatsiya Bu maqolada talabalarda bolalar, erkaklar kiyimlari uchun turli xil cho'ntak namunalarni tayyorlash bilim va ko'nikmalarni shakllantirish .

1. Bolalar, erkaklar kiyimlari uchun turli xil cho'ntaklar to'g'risida ma'lumot
2. Bolalar, erkaklar kiyimlari uchun turli xil cho'ntaklarni loyihalash va modellashtirish
3. Bolalar, erkaklar kiyimlari uchun turli xil cho'ntaklar namunasini tayyorlash

Kalit so'zlar Cho'ntak, qirqma, chok, qoplama, vertikal, gorizontal, qiyalama,

Cho'ntaklar uch turga bo'linadi: qirqma, chokdagi va qoplama cho'ntaklarga qirqma cho'ntaklar qaerga joylashganiga qarab yon va tepa cho'ntak deb ataladi. Qirqmasi yo'nalishiga qarab vertikal, gorizontal va qiyalama, cho'ntak og'ziga shakliga qarab to'g'ri chiziq shaklida va murakkab shaklda bo'ladi. Cho'ntak yuqori tomonining bezalishiga qarab qapqoqli, lestochkali va mag'izli bo'ladi. Pastki tomoni ramkali yoki kantli bo'ladi. Ushbu modulda biz deyarli hamma

kiyimlarda ishlatiladigan ramka cho'ntakni ko'rib chiqamiz. Chunki uning tikilishi oddiy, ko'rinishi chiroyli va turli xil qalinlikdagi gazlamalarga tiksa bo'ladi. Asosiy bo'lakning o'ngiga yordamchi andoza qoyib yoqa andozasiz cho'ntak o'rni belgilab olinadi. Cho'ntak o'rni 5 ta (3 ta gorizontal va 2 ta vertikal) chiziq bilan belgilab olinadi. Gorizontal chiziqlar o'rtasidagi oraliq cho'ntakning ikkala pomkasi kengligiga teng vertikal chiziqlar o'rtasidagi oraliq esa cho'ntak og'zi uzunligiga teng bo'ladi. To'g'ri ramkali qirqma cho'ntak tikishda cho'ntak qirqimini tikishga mo'ljallangan mag'iz ikki bo'lakdan iborat bo'lib, asosiy yoki bezak materialdan tayyorlanadi. Cho'ntak mag'izi cho'ntak xalta bilan yaxlit yoki alohida bichilgan bo'ladi. Cho'ntak xalta bilan yaxlit bichilgan mag'izni teskarisini ichkariga qaratib, kant kengligi va 0,5-0,7 sm chok haqi kengligiga teng qilib bukib dazmollanadi. Mag'iz alohida bichilagan bo'lsa teskarisini ichkariga qaratib uzunasiga ikki bukib dazmollanadi.

Mag'iz vazifasini ham o'taydigan, bukib dazmollangan cho'ntak xaltani kalta tomonini pastga bukilgan ziylarini tashqariga qaratib qoyiladi. Mag'iz ziyidan gorizontal belgi chiziq boylab mag'iz asosiy bo'lakga ulanadi. Bahyaqator uchlari vertikal belgi chiziqda tugallanadi. Bahyaqator boshi va oxirgi ikki-uchta qaytma bahyaqator yuritib puxtalanadi.

Bo'lak teskarisidan ikki bahyaqator orasida asosiy bo'lak qirqiladi. Uchlarida bahyaqator tomon burchak hosil qilib bahyaqatorga 0,1 sm yetkazmay qirqiladi. Cho'ntak xalta asosiy bo'lakning teskarisiga ag'darib o'tkaziladi va cho'ntak og'zi burchaklari tekislanadi. Cho'ntak xalta bilan mag'iz alohida bichilgan bo'lsa mag'izning ochiq qirqim tomoniga 0,7-1,0 sm kenglikdagi chok bilan cho'ntak xalta ulanadi. Titiluvchan gazlamalarda bu chok haqi yo'rmalanadi. Cho'ntak ramkalari va burchaklardagi keritilgan material uchlarini to'g'rilib, ikki – uchta qaytma bahyaqator yuritib cho'ntak uchlari puxtalanadi. Cho'ntak xalta biriktirib tikiladi va qirqimlari yo'rmalanadi.

Uslubiy tavsiyalar:



Amaliy mashg‘ulot bolalar, erkaklar kiyimlari uchun turli xil cho‘ntak namunalarni tayyorlash mavzusiga doir olingan nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga doir malakalarni o‘qituvchi yordamida shakllantiradi. Amaliy mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan mavzular va mustaqil ta‘lim mavzusi bir-biriga mos qilib olingan. Bir mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha nostandard, alohida yondoshish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Bolalar, erkaklar kiyimlari uchun turli xil cho‘ntak namunalarni tayyorlash bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rganib, amaliy topshiriqlarda berilgan vazifalarni bajaring hamda hisobot tayyorlang. Hisobotda amaliy ishning mavzusi, ishning maqsadi, kerakli jihozlar va asbob-uskunalarning nomi, ishning bajarilish tartibi keltirilgan bo‘lishi hamda mavzu yuzasidan berilgan nazorat savollari va topshiriqlarni bajargan holda amaliy ish bajarilishi kerak. Topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiring, mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlang. zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o‘qituvchidan maslahatlar oling. tikilayotgan buyumni o‘lchovlarini kichraytirgan holda namuna uchun tayyorlappingiz mumkin.

Kerakli jihozlar va asbob-uskunalar:

- Stol, stul, ikki ipli universal mashina 1022 kl 97 kl., 22 kl.
- Dazmol;
- Birikma ramkali cho‘ntakdan namunalar.
- Chokni tekshirish uchun qiyqim, bo‘r, cho‘ntak bo‘laklari;
- Cho‘ntaklardan namuna ko’rsatilgan devoriy ko’rgazma.

Bitta o‘quvchi uchun:

- Ramkali qirqma cho‘ntak uchun texnologik xarita;

- Igna, ip, qaychi, angishvona, bo'r, ruchka, qalam.
- Gazlama 070 m2;

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z.Davletsheva Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O‘quv qo’llanma. Toshkent “Sano standart” nashriyoti 2017
2. G‘.Abduqodirov Kasb ta’limi praktikumi .T.: 2012.-260 b.
3. Gaipova N.S.va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O‘quv qo’llanma. T.: “Adabiyot” 2006
4. Olimov Q.T. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari. Darslik Toshkent 2008
5. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Darslik. Toshkent “O’zbekiston” nashriyoti. 1994 yil.